

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALAUDINOVA DILNOZA RUSTAM QIZI**

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI  
O‘QITUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ MALAKALARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим  
наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Alaudinova Dilnoza Rustam qizi**

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining og‘zaki  
nutq malakalarini rivojlantirish metodikasi ..... 3

**Алаудинова Дилноза Рустам кизи**

Методика развития навыков устной речи будущих учителей английского языка  
на основе компетентностного подхода..... 21

**Alaudinova Dilnoza Rustam qizi**

Methodology for developing oral skills of future English language teachers based on  
the competence approach ..... 39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALAUDINOVA DILNOZA RUSTAM QIZI**

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI  
O‘QITUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ MALAKALARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3087 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([chspi.uz.ilmiy-kengash](http://chspi.uz.ilmiy-kengash)) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bozorova Muslima Qodirovna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Djumabayeva Jamila Sharipovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Normatova Nurjamol Normatovna**  
pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (Phd),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_\_” kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chspi-kengash@umail.uz.).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dari \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi)

**U.N. Xodjamqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., dotsent

**F.T. Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**Sh.I. Botirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish mazmunini takomillashtirish hamda ingliz tilini o‘qitishning xususiy masalalari o‘z navbatida o‘qitish metodikasida xorijiy tajribalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Jumladan, dunyodagi yetakchi Kembrij, Oksford, Toronto, Vankuver universitetlarining kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan loyihalari (Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar)<sup>11</sup>, Bostondagi avliyo Djon, Danvers, Chexiyaning Mendel, Irlandiyaning Gaelskoyl Yuxeyn oliv ta’lim muassasalarida og‘zaki nutqni rivojlantirishga doir olib borilgan tadqiqotlar, Yevropa ta’lim tizimi tarixidagi “Boloniya jarayoni” (Magna Charta Universitarum) kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini ta’minalashga xizmat qilmoqda. Chet tilini o‘rgatish samaradorligini oshirishda o‘quv-uslubiy adabiyotlar tarkibi, tuzilishi va mazmunini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish muhim omildir. Shu o‘rinda barcha ta’lim muassasalari faoliyatida kutilgan natijalarga erishish, sifat va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ta’limiy amaliyot kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish jarayonini yuqori standartlarga olib chiqish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib borish zaruriyatga aylanganini ko’rsatmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda og‘zaki nutq kompetensiyalarini qaror toptirish mexanizmlarini yaratish, ta’limda fanlararo integratsiyani ta’minalash, chet tilini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo’llash, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyatga tadbiq etish borasidagi fundamental tadqiqotlar va amaliy loyihalarga bo‘lgan zarurat ortmoqda.

Respublikamizda yetuk, yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashning kompleks tizimi yaratilmoqda. “Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta’lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e’tibor qaratilmoqda”<sup>2</sup>. Bunda pedagog kadrlarning kasb mahoratini uzlusiz yuksaltirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliv ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashda pedagoglarning baholash kompetensiyasini takomillashtirish va ta’lim jarayonida talabalarning malaka va ko‘nikmalarini baholashning yangi, xalqaro standartlarga asoslangan tizimini ishlab chiqish kabi muhim vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sodan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-sodan “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sodan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sodan “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

<sup>1</sup> Совет Европы: Симпозиум по теме «Ключевые компетенции для Европы»: Док. DECS / SC / Sec. (96) 43. Берн, 1996.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan tabrigi. 30.09.2020.

islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz", "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura", "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kabi asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlaridan R.Djurayev<sup>1</sup>, Sh.Abdullayeva, O.Musurmonova, Sh.Sharipov, D.Sharipova, M.Quronov, X.Mamatkulovlar tomonidan; J.Bo'ronov, J.Jalolov<sup>2</sup>, L.Axmedova, K.Risqulova, F.Ikromxonova, F.Ibragimovlar chet tillarga o'rgatishning lingvometodik asoslarini takomillashtirish; M.Abdullayeva, U.Jumanazarov tadqiqotlarida xorijiy tillarni o'rganishning amaliy-texnologik jihatlari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.R.Gayfutdinova, Ye.V.Yermolayeva, D.S.Belonog, S.N.Aliyev, G.U.Axmedova, S.V.Fedorova, V.V.Safonova, Ye.Shevashinova, Ye.Burdina, O.Yu.Pestretsova, I.Zaysevalar; talabalar faolligini oshirishning badiiy aspektlari T.Gilmanova, P.Baklanov tadqiqotlari; chet tillarini o'qitishning psixologik jihatlari L.S.Rubinshteyn, A.M.Oleynikova, V.V.Vigotskiy, N.A.Seleznova, N.J.Dagbayeva, I.A.Zimnyayalar ilmiy tadqiqotlarining natijalari va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Xorijlik olimlardan D.Nunan, J.Richard, J.Rodgers, J.Xarmer tomonidan, xususan nutqiy muammolari va ularning oldini olishdagi yondashuvlar Yu.Kormos,

<sup>1</sup> Djurayev R.X. Ta'linda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – 87 b.; Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va èshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 97 b.; Sharipova D.D. Nauchno-pedagogicheskiye osnovy gigiyenicheskogo vospitaniya shkolnikov: (Na materiale shkol Uzbekistana): Avtoref. diss. ... d-ra ped. nauk. – Tashkent, 1990. – 44 s.; Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzyviligini ta'minlashning nazariyasi va amalièti: Pedag. fan. d-ri ... diss. avtoref. – T.: 2012. – 46 b.; Quronov M. Oliy ta'lim muassalarida ma'naviy – ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish. – T. 2011. – 88 b.; Mamatkulov X.A.Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlanishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – T.: 2018. – 47 b.

<sup>2</sup> Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: 2012. – 427 b.; Axmedova L.T. Teoriya i praktika obucheniya professionalnoy russkoy rechi studentov-filologov. –T.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 s.; Abdullayeva M.A. Kommunikativnaya metodika obucheniya inoyazychnoy grammatike na nachalnom etape yazыkovogo fakulteta (na materiale Present Continuous, Present Perfect angliyskogo glagola): Diss ... kand. ped. nauk. – Tashkent, 2004. – 189 s.; Riskulova K.D. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: Ped. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. – T.: 2018. – 44 b.;

J.Nijakovska, R.Berlin, E.Shneydir, M.Krombi, E.Turner, J.Pux, G.Reyd, P.Changlarning tadqiqot ishlarida ingliz tilida nutqni tezkor o'stirish metodikasini takomillashtirish usullari o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>.

Biroq, mashg'ulotlar jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalar og'zaki nutqini rivojlantirishning mohiyati, pedagogik-psixologik xususiyatlari, amaliy mashqlar tizimi muammosi ilmiy tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, talabalarda kompetensiyaviy yondashuv asosida og'zaki nutqni rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanish olib borishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tillararo munosabatlar" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

kompetensiyaviy yondashuv asosida ingliz tilida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish;

ingliz tilida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini o'rganish;

chet tili predmetining umumta'limiy maqomi, uning psixologik, pedagogik, lingvometodik hamda lingvodidaktik xususiyatlarini aniqlashtirish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Termiz davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetining ingliz tili ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 800 nafar respondent-talabalari ishtirot etdi.

**Tadqiqotning predmetini** kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy taqqoslash, analiz-sintez), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, suhbat) prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperiment, tajriba materiallarini matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafiklarda tasvirlash metodlaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> Kormos J. The second language learning processes of students with specific learning difficulties.- New York, Routledge, 2017.-182p.; Nijakowska J. Dyslexia in the Foreign Language Classroom. Ireland, Short Run Press Ltd, 2010. -249p.; R. Berlin, E. Besondere Art der Wortblindheit (A special kind of word blindness. German, Weisbaden, 1887.-112-145p.; Schneider E. and Crombie M. Dyslexia and Foreign Language Learning. London, David Fulton Publishers. 2003.-128p.; Turner E. Pughe J. Dyslexia and English. London, David Fulton Publishers, 2003.-104p.; Kormos J. Margaret A. Smith A.V. Teaching Languages to Students with Specific Learning Differences // Toronto. Multilingual Matters, Bristol, Buffalo, 2012.-232p.; Reid G. A Practitioners Handbook, 5th edition.2016, -113p.; Wiley. P. Chung, Dilip R Ratel. // Nova Science Publishers, 2015.-p 27-36.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning lingvovidaktik komponentlari fonetiko-fonematik eshituv idrokiga asoslangan til o'rgatmalarini talabalarning lug'at zaxirasini intensiv rivojlantirishga yo'naltirilgan dialogik muhitga ta'kidiy talaffuz munosabatida kiritish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirish modeli til malakalarini integrativ egallash imkonini beruvchi faol leksikani lingvoadaptiv muhitda xotiraga yo'naltirilgan vizualizatsiyali kontekstda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish texnologiyalari nutqiy muloqotda axborotlarni "idrok-tahlil-iste'mol" munosabatida tezkor qayta ishlashga yo'naltirilgan "Concept mapping", "Mind mapping" kabi interfaol ta'lim metodlarini til o'rganishda shaxsiy tajribalarga tayanuvchi variativ ish turlari bilan optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirishning metodik ta'minoti differentsial, vaziyatli yondashuv kabi samarali muloqot malakalarini intensiv rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvopedagogik tamoyillarni kompetensiyaviy o'qitish muhitiga nutq texnikasining progressiv darajalanishida singdirish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutq malakalarining rivojlanganlik darajasini aniqlashga doir diagnostik va metodik vositalar tizimi takomillashtirilgan;

"Improving speaking skills" nomli monografiya nashr ettirilgan;

"Til aspektlari amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma nashr ettirilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishning metodik tamoyillariga asoslangan amaliy mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bilish nazariyasi metodologiyasi hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va chet el olimlari shuningdek, amaliyotchilarining ilmiy ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi; tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarning ingliz tilida og'zaki nutqini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishning pedagogik, lingvovidaktik, psixologik xususiyatlari, til o'rganish muhitini samarali tashkil etishga doir faol leksik komponentlarning aniqlanganligi, og'zaki nutqda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etishning muammoli, o'yinli, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari hamda til mashqlari integratsiyasiga asoslangan interfaol usullarining ilmiy asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda duch keladigan muammolarini bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan nutqiy texnikalar, metodik va didaktik ta'minot hamda nutqiy zaxirani rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqot materiallaridan ingliz tili o'qituvchilari malakasini oshirish kurslarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida va shu soha bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirishga kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik va amaliy takliflar asosida:

fonetiko-fonematik eshituv idrokiga asoslangan til o‘rgatmalarini talabalarning lug‘at zaxirasini intensiv rivojlantirishga yo‘naltirilgan dialogik muhitga ta’kidiy talaffuz munosabatida kiritish asosida takomillashtirilgan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida og‘zaki nutqni rivojlantirishning lingvovidaktik komponentlarini aniqlashga doir nazariy xulosa va amaliy takliflar “Til aspektlari amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-sonli buyrug‘iga asosan berilgan 302-0886-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida og‘zaki nutqni rivojlantirishning lingvovidaktik komponentlari aniqlashtirilgan;

til malakalarini integrativ egallahim imkonini beruvchi faol leksikani lingvoadaptiv muhitda xotiraga yo‘naltirilgan vizualizatsiyali kontekstda qo‘llash asosida takomillashtirilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida og‘zaki nutqni rivojlantirish modeli, nutqiy muloqotda axborotlarni “idrok-tahlil-iste’mol” munosabatida tezkor qayta ishlashga yo‘naltirilgan “Concept mapping”, “Mind mapping” kabi interfaol ta’lim metodlarini til o‘rganishda shaxsiy tajribalarga tayanuvchi variativ ish turlari bilan optimallashtirish asosida takomillashtirilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish texnologiyalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” (2012-2014 yy) mavzusidagi amaliy fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022 yil 26 avgustdaggi 217-sodan ma’lumotnomasi). Natijada, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish texnologiyalari takomillashtirilgan;

differential, vaziyatli yondashuv kabi samarali muloqot malakalarini intensiv rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvopedagogik tamoyillarni kompentensiyaviy o‘qitish muhitiga nutq texnikasining progressiv darajalanishida singdirish asosida takomillashtirilgan ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishning metodik ta’minoti bo‘yicha takliflar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” (2017-2020 yy) mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022 yil 26 avgustdaggi 217-sodan ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutqini rivojlantirishning metodik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xorijiy, 10 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan 1 ta o‘quv-metodik qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning doktorlik

dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, o‘quv dasturlari uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 135 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejali bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’yekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tadbipi va ularning sinovdan o‘tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida og‘zaki nutqni rivojlantirishning ilmiy strategik asoslari; ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishning psixologik-pedagogik va lingvodidaktik xususiyatlari; bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida og‘zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirishning shart-sharoitlari xususida O‘zbekiston, MDH mamlakatlari va xorijda tadqiqot olib borgan olimlar ishlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jixatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5117-son qarorida ham chet tilini o‘qitishga katta e’tibor qaratilgan.

“Kompetentlik” mutaxassisning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, mutaxassisning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati kompetensiya tushunchasi bilan ifodalanadi. Aslida, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, muayyan farqli jihatlarga ham ega. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatsa, kompetentlik bilimlarni ish jarayonida qo‘llay olish darajasiga nisbatan ishlatiladi. Kompetensiya darjasи mutaxassisdan bilimlarini

doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

So‘nggi paytlarda ta’lim natijalarini “ta’lim”, “tarbiya”, “umumiy madaniyat” kabi tushunchalardan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga almashtirish, shu orqali olimlar va mutaxassislarni oliy va o‘rta maktablarda kompetentlik yondashuvi asosida ta’lim jarayonini qayta tashkil etishga chaqirmoqda. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda barcha fanlarni o‘qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv tadbiq etilmoqda. Zamонавиу та’лимда талабаларга фан бо‘йича билим, ко‘никма, малақа беришнинг о‘зи yetarli emas. Qolaversa, hosil qilingan bilim, ko‘nikma, malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo‘llash malakasini shakllantirib berish kerakligi bugungi kun talabini tashkil etadi. Qayd etish joizki, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi. Bu tendensiya, adabiyotlarda qayd etilganidek, yangi kontseptual asos sifatida qaralmoqda. Kompetensiyalarning mazmuni va mohiyatini o‘rganishdan oldin, uning fan va turmushga kirib kelishning qisqacha tarixi bilan tanishaylik. “Kompetensiya” so‘zi ilk bor 1955 yilda N.A.Xomskiy tomonidan qo‘llangan bo‘lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida” talqin etilgan, “kompetensiyaviy yondashuv” esa ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan. “Kompetensiyaga asoslangan yondashuv (competence based approach)” tushunchasi asosida “kompetensiyaga asoslangan til o‘qitish (competence based language teaching)” tushunchasi, keyinchalik esa “kompetensiyaga asoslangan ta’lim (competence based education)” tushunchasi yuzaga keladi. Quyida biz kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi bosqich – 1960–1970 yillar – tilni o‘rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kiritiladi.

Ikkinci bosqich – 1970–1990 yillar – kompetensiya/kompetentlik kategoriylarini tilni ayniqsa ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o‘rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va mulqotni o‘rganishda foydalanila boshlandi. Bu paytda “ijtimoiy kompetensiya, kompetentlik” tushunchasining mazmuni ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich –1990 va 2005 yillarda kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy ta’limga, umumta’lim fanlariga va boshqa yo‘nalishlarda qo‘llanila boshlandi.

To‘rtinchi bosqichda (2005 yildan hozirgacha bo‘lgan vaqt) kompetensiyaga asoslangan ta’lim davlat ta’lim standartlariga kiritilishi va unda muhim

kompetensiyalarni joriy etilishi bilan ahamiyatli. 2006 yil 18 dekabrdan Yevropa parlamenti va Kengashi uzlusiz ta’lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O‘z ona tilida muloqot qila olish;
2. Chet tilida muloqot qila olish;
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
4. Raqamli kompetentlik;
5. O‘qishni o‘rganish;
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi.

Hozirda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalar quyidagilar etib belgilangan:

O‘rganilishi lozim bo’lganlari:

- tajribadan foydali biror narsani chiqarib olishi;
- o‘z bilimlari orasidagi o‘zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblashtirish;
- o‘zining shaxsiy o‘rganish usullarini tashkil qilish (o‘rnatish);
- muammolarni yecha olish.

Izlash:

- mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanish;
- turli ma’lumotlar bazasini izlash;
- tevarak-atrofdan surishtirish;
- ekspertdan maslahat olish;
- axborot olish;
- hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash)


O‘ylash:

- o‘tgan va hozirgi voqealar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topmoq;
- jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondashmoq;
- murakkablik va o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qolishiga qarshi turmoq;
- bahslashuvlarda o‘z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo‘lmoq;
- o‘qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;
- salomatlik, iste’mol qilish, hamda tasviriy san’at va adabiy asarlarini baholay bilish.

Hamkorlik qilish:

- guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- qarorlar qabul qilish–anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;
- kelisha olish;
- shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Shunga ko‘ra ta’lim jarayoniga talabalar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS larni yaratish va ta’lim jarayoniga qo‘llash zaruriyati yuzaga keldi. Yuqorida fikrlarga asoslanib oliy ta’lim jarayoni tahlil qilindi hamda talabalar individual kompetentligining tarkibiy tuzilishi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. Talabalar individual kompetentligining strukturaviy modeli

Natijada, talabalar chet tili darsida bilim olibgina qolmay, o‘quv jarayoni qanday tuzilganini, real hayotda uni qanday qo‘llash mumkinligini tushunishlari, shuningdek, zarur ma’naviy-axloqiy kompetentlikni ham egallashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv asosida og‘zaki nutqni o‘stirish zamonaviy va samarali ta’lim tamoyillaridan biri bo‘lib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida qo‘p qirrali tasvir va dunyoqarashni shakllantiradi, ularni bugungi zamon talablarigi mos holda yangicha fikrlash va mulohaza yuritishga undaydi, bilimlarni oson va tez o‘zlashtirishga imkon yaratadi va motivatsiya uyg‘otadi.

Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida og‘zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-metodik prinsiplari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, talabalarda kompetensiyaviy yondashuv asosida og‘zaki nutqni rivojlantirishning mashqlar tizimi, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi kontseptual va aqliy xarita (concept mapping, mind mapping) kabi o‘qitish texnologiyalari mazmuni yoritilgan.

Kompetensiya muammosining ta’lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin (2-rasmga qarang).

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini ijtimoiy-madaniy kompetentlik kontekstida takomillashtirish quyidagi yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi:

1) kompetent (kompetensiyaviy) yondashuv kasbiy bilim, malaka vako‘nikmalarining yaxlit tizimini va ta’lim oluvchilarning shaxsiy mas’uliyatini shakllantirishga yordam beradi;

2) shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv har bir talaba bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi va amalda qo‘llashi, o‘z faoliyatini rejalash-tirishi, uning natijalarini tahlil qilishi va baholashi, jamoada hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish ko‘nikmalarining shakllanishi uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi;

3) kommunikativ-kognitiv yondashuv muammoli nutqiy va ijodiyvazifalar lingvistik, reproduktiv-mashq qilish vazifalaridan ustun bo‘lishini nazarda tutadi;

4) tizimli yondashuv o‘zaro aloqador malakalarini tadqiq qilish, tizim vamuhitning o‘zaro munosabati, tizim uchun xarakterli bo‘lgan pog‘onaviylik xarakterini o‘rganish, tizimni to‘liq qamrab olish maqsadida ifodalarning ko‘p

variantliligini ta'minlash, tizimdagи dinamikani o'rganish, rivojlanayotgan yaxlitlik deb tavsiflashga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining Xorijiy filologiya yo'nalishlarida xorijiy tillardan biri ingliz tilini o'qitishda talabalarning og'zaki nutqi ko'nikmalarini rivojlantirish muhim masalalardan hisoblanadi. Xorijiy filologiya yo'nalishlarida ingliz tilidan saboq olayotgan talaba davlat ta'lim standartida belgilanganidek, shu tildagi imlo va to'g'ri talaffuz me'yorlarini bilishi, lug'at boyligiga ega bo'lishi, uslubiy me'yorlarni bilishi talab etiladi.

Ma'lumki, bu me'yorlarni o'zlashtirgan talaba bo'lg'usi mutaxassis sifatida nutqiy faoliyatida yoki kasb sohasida amaliyatda qo'llay bilishi zarur bo'ladi. O'tmishda til o'rgatishda asosan grammatikani o'zlashtirish talab etilgan va barcha darsliklar ham shu maqsadga qaratilgan holda tuzilardi. P.Glezer va I.Petsoldning yigirma martadan ortiq nashr qilingan nemis tili darsligida quyidagi gaplarni tarjima qilish tavsiya etilgan: "Biz Fridrix Shiller va mashhur Gyotening asarlarini o'qiyimiz. Peterburgda Yekaterina II va Buyuk Pyotr haykallari bor". Matndan keyin esa nemischa o'qimoq, asar, mashhur, Peterburg, bor, haykal, buyuk kabi tarjima qilishda foydalaniladigan barcha so'zlar berilgan.

Talabalarning nutq ko'nikmalarini shakllantirishda oliy ta'lim o'qituvchisidan bilimdan tashqari kasbiy mahorat talab etiladi. Oliy ta'lim talabalarining nemis tilida og'zaki nutqini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'z samarasini beradi. Talabalarning nemis tilidagi nutq ko'nikmalarini shakllantirishda madaniy nutq mezonlariga amal qilish talab etiladi. Tilshunos mutaxassislarning belgilashiga ko'ra, madaniy nutq mezonlari quyidagilar:

1. Nutq to'g'riliqi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning sofliqi.
4. Nutq boyligi.
5. Nutqning ifodaliligi.
6. Nutq mantig'i.
7. Nutqning maqsadga muvofiqligi.

M.Berlits esa chet tillarini o'qitishda quyidagi qoidalarni ishlab chiqqan:

1. O'qitishda ona tilini qo'llamaslik, til hodisalarini esa tarjimaga murojaat qilmay, bevosita idrok etish lozim. Til hodisalarining ma'nosini turli xil ko'rgazmali quroq, kontekst yoki ta'riflashlar yordamida ochib berish kerak.

2. Barcha til materiali faqat og'zaki berilishi zarur.

3. O'quv materiali o'qituvchiga taqlid qilish jarayonida taqqoslash usulidan keng foydalanib mustahkamlanishi zarur.

4. O'quvchilarning faollashuviga imkon beruvchi, tilni tabiiy o'rganishga eng yaqin ish shakli deb hisoblanishi kerak.

Ma'lumki, og'zaki nutq odatdagi tovushli va so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali yetkazish maqsadida to'liqsiz gaplardan ham foydalaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi. Xorijiy filologiya ta'lim yo'nalishlarida ingliz tili darslarida talabalarning og'zaki nutqini o'stirishda tadqiqot metodini qo'llash samaralidir. Xususan, topshiriqlar tuzishda talabalarni ijodiy ishlashga yo'naltirish

mumkin. Hozirda darslarda modellashtirish (trenirovka), namoyish qilish, kichik guruhlarda ishslash, aqliy hujum, tanqidiy tafakkur, debatlar, nuqtai nazaring bo'lsin, bir-biriga o'rgatish, rolli o'yinlar, muayyan holatni o'rganish, modifikatsiyalangan ma'ruza kabi turli innavatsion usullar mavjud. "Kichik guruhlarda ishslash". Bu usullarda har bir talaba darsda faol ishtirokchi, boshlovchi, bir – biridan o'rganuvchi, turli nuqtayi nazarlarini qadrlashni o'rganadi.

Qo'llash usuli:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi, muammodan bir – biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kerakli asos yaratiladi, talabalar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim.

3. Guruhlar belgilanadi.

4. Aniq ko'rsatma beriladi.

5. Qo'llab – quvvatlab yo'naltirib turiladi.

6. Muhokama qilinadi.

